

BOLALIKKA OSHUFTA QALB EGASI...

Nusratova Hamida Cho‘liboyevna
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

Siz hazrati Inson haqida eshitganmisiz? Uning qanday qiyofada bo‘lishini o‘ylab ko‘rganmisiz? Atrofimizdagi bashariyat uchun u nega aziz ekanligini-chi?...

Ha, haqiqatda ham juda ko‘pchilikni qiynaydigan, o‘ylatib qo‘yadigan bunday savollar o‘zligini anglashni istagan har bir kishini qiziqtirishi shubhasiz. Jumladan, men ham bunday savollar girdobida ko‘p xayollarga cho‘maman....

2006-yil kuzida ustozim Oxunjon Safarov menga nomzodlik ishi sifatida “Safar Barnoyevning badiiy mahorati” mavzusini o‘rganishim uchun topshirdilar. Shunda tadqiqot ishini o‘rganish uchun juda ko‘p topshiriqlar berdilar va men alohida shijoat bilan o‘rganishni boshladim. Oradan biroz muddat o‘tib, men Safar Barnoyevning asarlari, publitsistik maqolalari bilan tanishgach, ustozimning taklifiga ko‘ra, “Safar Barnoyev zamondoshlar xotirasida” nomli risolani to‘plashga kirishdim. Unda shoirning zamondosh qalamkash do‘stlari, u haqidagi nashr ettirilgan ilmiy - publitsistik maqolalar va bolalar adabiyoti yo‘nalishida ilmiy faoliyat olib borgan tadqiqotchilarning maqolalarini, xotira, esselarini to‘plashga harakat qildim. O‘shanda birinchi marta olim, bolalar adabiyotining fidoiy tadqiqotchisi Rahmatulla Barakayev bilan uchrashgandim. Ustozdagi samimiylilik, kamtarlik, o‘z sohasining yetuk mutaxassisi sifatidagi ilmiy qarashlari, mushohadalari meni o‘ziga jalb qilgandi. Ustoz men ishlamoqchi bo‘lgan tadqiqot ishini mamnuniyat bilan kutib olgandilar va o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, to‘g‘ri maslahat berganlarini hozirgacha qadrlayman...

Men o‘zbek bolalar adabiyoti nazariyasi, uning ijodkorlari asarlarini o‘rganish bilan birga shu sohada faoliyat yuritayotgan tadqiqotchi olimlar va mutaxassislarning ham ilmiy risolalari bilan tanishib chiqdim. Bunda birinchilardan bo‘lib, ustoz Rahmatulla Barakayevning “O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi”¹ nomli monografiyasi, “Jonajonim, she‘riyat”² risolasi, 50 dan ortik ilmiy maqolalarini o‘qish orqali “bolalar saltanati” atalmish olamga oshufta bo‘ldim. “Bolalar adabiyoti” haqiqatda ham alohida “saltanat” bo‘lib, uning o‘z qonunlari, ijodkorlari, kitobxonlari-yu, o‘z tadqiqotchilari mavjud. Bu olamda samimiylilik, kamtarlik, bolajonlik, quvnoqlik, beg‘ubor yumor va adolat hukmronlik qiladi. Unda cheksiz muhabbat yashiringan. Bu muhabbat – bolalarning beg‘ubor, samimiy hazil - mutoyibalarida, beg‘araz sodda so‘zlarida, olamga teran nigoh

¹ O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. – T.: Fan, 2004

² Barakayev R. Jonajonim, she‘riyat (80-yillar o‘zbek bolalar adabiyoti she‘riyati muammolariga bag‘ishlangan maqolalar to‘plami). – T.: Cho‘lpon, 1997

bilan qarashlarida, doimo ezgulikni o‘ylaydigan qalblarida ko‘rinadi. “Bolalar saltanatida” uning yosh, ko‘zlari chaqnoq, qalblari otash, so‘zlari sof, yuraklari jo‘shqin “inson”lari kelajak davomchilari sifatida ta’lim-tarbiya olishga, kattalar olamidani saboq olishga harakat qiladilar.

Bu olamni esa hamma katta avlod vakillari ko‘rib, his qilishlari qiyin... Buning uchun bolalarcha beg‘ubor fikrlash, o‘ylash va qalban bolajon bo‘lib tug‘ilish kerak. Haqiqiy bolalar ijodkorlari xuddi shunday iste’dod egalaridirlar. Chin bolalar adabiyoti tadqiqotchilari esa buni nozik qalb bilan anglab, tadqiq qilib, tashviq qiluvchi insonlardir. Ustoz Rahmatulla Barakayev ham mana shunday nozik qalb, bolajon, bag‘rikeng olimlarimizdan biri deb bilaman.

Olim Rahmatulla Barakayev o‘zbek bolalar adabiyoti sohasini tadqiq qilish orqali, uning fan sifatida shakllanishida tamal toshini qo‘yganlardan biri sifatida respublikada o‘z mavqeiga ega. U yurtimizdagi pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida “Bolalar adabiyoti” fani o‘qitilishini ta’minlash uchun juda katta sa’y-harakat qilganliklaridan xabardormiz. Buning uchun “Bolalar adabiyoti” fanining o‘qitilish asosnomasi, talabnomasi, mushohada-yu muhokamasini yaratilishida jonbozlik ko‘rsatgan tashviqotchi ekanligini ham ta’kidlaymiz. Hozirda ustozning sa’y-harakati va asosli fikr-mulohazalari samarasi sifatida pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida “Bolalar adabiyoti” fani o‘qitilmoqda...

Ustoz yarim asr davomida o‘zbek bolalar adabiyoti sohasida ilmiy faoliyat yuritdilar. Bolalar adabiyoti uning nazariy asoslarini o‘rganishga, bolalar ijodkorlaridan bir nechtasi faoliyatini tadqiq qilishga erishdilar. Demak, ustoz Rahmatulla Barakayev bolalar ijodini tadqiq etishdan saodat topgan tadqiqotchidir. Olim hozirgacha bir nechta bolalar ijodkorlari faoliyatini shogirdlariga nomzodlik ishi sifatida izlanishga topshirib, bolalar adabiyoti tadqiqiga o‘zining sezilarli hissasini qo‘shib kelmoqda. Rahmatulla Barakayev o‘z tadqiqotlari va shogirdlari tadqiqi orqali tom ma’noda bolalar adabiyotidagi ulkan ilmiy bo‘shliqni to‘ldirmoqda.

Nazarimda, qalbi ummon, insonlarga beminnat madadkor, ilmu urfon sohibi Ustozim Rahmatulla Barakayev ham bizning olamdagi insonlar orasida yashab kelayotgan Hazrati Insonlardan biridir. Ma’rifatparvar adib Yusuf Xos Hojib ta’kidlaganlaridek:

O‘quv qut beradi, bilim sharaf-shon,

Shu ikkovi tufayli ulug‘dir inson.

Shogirdlariga, farzandlariga hamkasbu qadrdonlariga maslahatdosh, maslakdosh Ustozim, qutlug‘ yoshingiz muborak bo‘lsin. Har doim biz shogirdlarga o‘rnak bo‘lib yurishingizni yaratgandan so‘rab qolamiz!!!